

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Ped 28.01. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

SULTANOV SHUXRATJON NURMAXAMATOVICH

**14-15 YOSHLI ERKIN KURASHCHILARNING KOMPLEKS
TAYYORGARLIGIDA MASHG‘ULOT YUKLAMALARINI
OPTIMALLASHTIRISH**

**13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy
tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Chirchiq – 2025

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Sultonov Shuxratjon Nurmahamatovich

14-15 yoshli erkin kurashchilarning kompleks tayyorgarligida mashg‘ulot yuklamalarini optimallashtirish.....3

Султанов Шухратжон Нурмахаматович

Оптимизация тренировочных нагрузок в комплексной подготовке борцов вольного стиля 14-15 лет.....27

Sultanov Shukhratjon Nurmahamatovich

Optimization of training loads in complex training of 14-15 year old freestyle wrestlers.....54

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....59

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Ped 28.01. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

SULTANOV SHUXRATJON NURMAXAMATOVICH

**14-15 YOSHLI ERKIN KURASHCHILARNING KOMPLEKS
TAYYORGARLIGIDA MASHG‘ULOT YUKLAMALARINI
OPTIMALLASHTIRISH**

**13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy
tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Chirchiq – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Ped.6785 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Guliston davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasining (www.jtsu.uz), “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Tajibayev Soyib Samijonovich
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Dadaboyev Odiljon Jalolidinovich
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Kipchakov Bahodir Bahriddinovich
pedagogika fanlari nomzodi, professor

Yetakchi tashkilot:

Namangan davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01. raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “___” “_____” soat ___dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko‘chasi, 19- uy. Tel:(0-370)717-17-79,717-27-27, faks:(0-370) 717-17-76, veb-sayt: www.jtsu.uz, e-mail:info@jtsu.uz. O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti, E bino, 3-qavat 309-auditoriya).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Metallurgchilar ko‘chasi, 19-uy.Tel.: (0-370)-717-17-79, 717-27-27, faks.:(0-370) 717-17-76).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “___” _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil “___” _____dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi)

R.M.Matkarimov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash raisi, p.f.d (DSc), professor

M.A.Ibragimov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, p.f.b.f.d (PhD), professor

A.N.Shopulatov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash qoshidagi Ilmiy
seminar raisi, p.f.d. (DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi))

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda zamonaviy sportning rivojlanishi va unda erishilayotgan yutuqlarning ko'rsatkichlari shu darajaga yetdiki, natijada sohada faoliyat olib borayotgan mutaxassislardan tinimsiz izlanishlar olib borish hamda mavjud imkoniyatlardan yanada samaradorlikka ega bo'lgan yangi texnologiyalarni yaratish masalasiga katta etibor qaratilmoqda. Biroq, so'ngi yillarda o'quv mashg'ulotlari jarayonida qo'llanilayotgan yuklamalar miqdorini optimallashtirish, hozirgi kunda olimpiyada dasturiga kiritilgan erkin kurash sport turi bilan shug'ullanuvchi sportchilarni raqobatga bardoshli qilib tayyorlashga katta e'tibor qaratilmoqda. Shu boisdan ham erkin kurashchilarning jismoniy, texnik-taktik tayyorgarligini optimallashtirishga qaratilgan, o'quv-mashg'ulot jarayonini tashkil etish hamda musobaqa oldi tayyorgarliklarini samarali rejalashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonda sportning erkin kurash turi bilan shug'ullanuvchilarning yoshga xos xususiyatlarini inobatga olgan xolda barcha jismoniy ko'rsatkichlarini yetarli darajada to'g'ri rivojlantirishiga erishtirish maqsadida soha mutaxassislari tomonidan samarali usul va vositalar ishlab chiqish ustida ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Erkin kurash bo'yicha musobaqalar kuzatilganda harakat tayyorgarligini samarali jismoniy, texnik-taktik tayyorgarlikni ilmiy ta'minlash, asoslash hamda tajriba natijalarini o'quv mashg'ulot jarayoniga joriy qilishga oid kompleks tayyorlashga e'tibor qaratilishi zarurati mavjud. 14-15 yoshli erkin kurashchilar uchun ko'p yillik tayyorgarlik yuklamalarini tizimlashtirish va ularning nisbatlarini ishlab chiqish, ilmiy asoslash, rejalashtirish va nazorat qilish hamda mashg'ulot yuklamalarini optimallashtirishdan keng foydalanish metodikasini takomillashtirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Respublikamizda bugungi kunda jismoniy tarbiya va sport sohasida maqsadli siyosat olib borilayotganligi tufayli, ushbu sohani yanada rivojlantirish masalalariga katta e'tibor berilayotganligi jismoniy tarbiya va sport sohasidagi mutahassislarning oldilariga qo'yilayotgan vazifalarda yaqqol ko'rinmoqda. "Sport kurashlarining olimpiya turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida qo'yilgan¹ vazifalar aniq belgilab berilgan. Xukumatimiz tomonidan sportga berilayotgan e'tibor natijasida sport turlari bilan shug'ullanuvchilarning soni ortib borishi iste'dodli sportchilarni seleksiya qilishga sabab bo'lmoqda. Sport turlari bilan shug'ullanuvchi sportchilar kontingentining ortishi, sportchilar o'rtasida raqobatning ortishiga olib kelmoqda. Bu esa o'z navbatida sohada faoliyat olib borayotgan mutaxassislarning oldiga yuqori malakali sportchilarni tayyorlashdek muhim vazifalarga yanada jiddiyroq e'tibor qaratish lozimligini ko'rsatadi. Shundan kelib chiqib, yosh kurashchilarning kompleks tayyorgarligida mashg'ulot yuklamalarini samarali rejalashtirishga qaratilgan taklif va tavsiylar ishlab chiqish talab qilinmoqda. Shuning uchun 14-15 yoshli erkin kurashchilarning jismoniy, texnik va taktik tayyorgarliklarini optimallashtirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2022-yil 29-iyuldagi PQ-336-son "Sport kurashlarining olimpiya turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdagi PF-5368-son “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60 son (2022-2026 yillarga mo‘ljallangan)) “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2020-yil 24-yanvardagi PF-2924-son “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari hamda 2022-yil 29-iyuldagi PQ-336-son “Sport kurashlarining olimpiya turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” bilan ustuvor yo‘nalishlar doirasida amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilishda, respublika olimlaridan Yu.M.Yunusova, A.N.Abdiyev, F.A.Kerimov O.V.Goncharova, D.D.Safarova, D.X.Adambayev, Sh.A.Abdullayev, S.Q.Adilov² va boshqa bir qancha yetakchi mutaxassislar tomonidan erkin kurashchilar mashg‘ulotlarida qo‘llanilayotgan vosita va usullardan to‘g‘ri foydalanishda texnik-taktik harakatlarning rivojlanish samaradorligini oshirish hamda ularni xalqaro arenalarda bo‘lib o‘tadigan musobaqalarga raqobatbardoshli qilib tarbiyalash, mashg‘ulotlar vaqtidagi mavjud muammolarning yechimiga, yangicha ilmiy-nazariy yondashish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borganlar.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari olimlaridan M.T.Ersegen, A.S.Todorov, S.V.Bagayev, Yu.A.Shaxmuradov, B.I.Tarakanov, X.A. Sanosiyani, S.L.Musaelyan, M.G. Agamiyn, A.A.Karelinlar³ yosh erkin kurashchilarni

² Юнусова Ю.М. Физическая культура в общеобразовательных школах республики Узбекистан. –Ташкент: 2004. – С. 106-107; Абдиев А.Н. Научно-педагогические основы формирования профессиональных умений у студентов, специализирующихся в видах спортивных единоборств: Автореф. дис. д-ра. пед. наук. – Т., 2004. С-22-26 с.; Керимов Ф.А. Спорт соҳасидаги илмий тадқиқотлар -Тошкент “Зарқалам”, 2004. Б 120-128; Гончарова О.В. Ёш спортчиларнинг жисмоний қобилиятларини ривожлантириш: Ўқув қўлланма. Тошкент, 2005.–108-116 б.; Сафарова Д.Ж., Адамбаев Д.Х. Оценка физической подготовленности высококвалифицированных дзюдоисток. - Т.: “Фан-спортга”, 2010.- С. 31- 36.; Абдуллаев Ш.А. Ёш курашчиларни тайёрлашнинг илмий-услубий асослари //Ўқув-услубий қўлланма.-Т, 2012. Б. 32-35.; Тастанов Н.А. Юқори малакали юнон-рум курашчиларининг мусобақа фаолиятига боғлиқ тезкор-куч тайёргарлигини ривожлантириш услубияти // “Жисмоний тарбия ва спорт машғулотлари назарияси ва услубиятининг замонавий муаммолари” мавзусидаги халқаро илмий-амалий анжуман материаллари тўплами.-Т.:2015.-158 б.

³ Эрцеган М.Т. Цель тренировки – развитие современной соревновательной модели //Спортивная борьба: Сб. информ. - метод. матер. - М.: ЦНИИС, ВНИИФК, 1990. - №1. - С.9-10.; Тодоров А.С. Контроль координации движений борцов вольного стиля: Автореф. дис. канд. пед. наук. – М., 1992. С 16-24; Багаев С.В. Современные тенденции в структуре средств технико-тактических действий в вольной борьбе и методика их совершенствования: Автореф. дис. канд. пед. наук. - Москва, 1998. С- 24-28; Шахмуратов Ю.А. Научно-методические основы многолетней технико-тактической подготовки борцов (на примере вольной борьбы): Автореф. дис. д-ра пед. наук. - М., 1999. – С. 24-28.; Тараканов Б.И. Критический анализ современных тенденций развития спортивной борьбы //Теория и практика физической культуры. - Москва, 2000. -№6. -С.28-31. Саносян Х.А., Мусаелян С.Л., Агамян М.Г. Разработка современной комплексной технологии контроля в видах единоборств //Теория и практика физической культуры. – Москва, 2002. -№4. – С.26-27.

tayyorlash mashg'ulotlar jarayonini optimallashtirish hamda yirik xalqaro musobaqalarga tayyorlashning muhim muammolari bo'yicha ilmiy tadqiqot va uslubiy ishlarida ko'rib chiqqanlar. Biroq ushbu ilmiy ishlarda erkin kurashchilarning koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirishning mazmun mohiyti yetarlicha yoritib berilmagan.

Xorijiy mamlakatlarda jismoniy tayyorgarlik va texnik-taktik harakatlarni rivojlantirishning ilmiy, nazariy va uslubiy asoslari, malakali kurashchilarning mashg'ulot jarayonlarida jismoniy tayyorgarlikni optimallashtirish, yakkakurash turlarida kurashchilar tayyorgarligini samarali oshirish uchun mashg'ulot va musobaqa faoliyatida jismoniy, texnik-taktik tayyorgarlikni rivojlantirish bo'yicha M.Tossavainen, A.Nummela, L.Paavolainen, A.Mero, H.Ruskolar⁴ tomonidan ilmiy-amaliy tadqiqotlar keng yoritilgan.

Yuqoridagi fikrlardan shunday xulosa qilish mumkinki, 14-15-yoshli erkin kurashchilarning mashg'ulotlari va musobaqa faoliyatini doimiy kuzatib, erkin kurashchilarning kompleks tayyorlash, mashg'ulot yuklamalarini optimallashtirish, tayyorgarlik turlari bo'yicha ko'rsatkichlarini aniqlash va past rivojlanish ko'rsatkichiga ega bo'lgan sifatlarni rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlarning yetarli emasligi mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Guliston davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasining № 7/1/4 bandiga muvofiq "Oliy ta'lim tizimida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib tashkil etish orqali talabalar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish" mavzusida ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o'quv-mashg'ulot guruhida shug'ullanuvchi 14-15 yoshli erkin kurashchilarning mashg'ulot yuklamalarini optimallashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

erkin kurashchilarning jismoniy rivojlanish darajalari bilan sport tayyorgarliklarini inobatga olgan holda mashg'ulot jarayonida qo'llaniladigan kompleks tayyorgarlik vosita va usullarini rejalashtirish bo'yicha mashg'ulot yuklamalarini optimallashtirish;

erkin kurashchilarda tortuvchi mikrosilkni rejalashtirishga yo'naltirilgan o'quv mashg'ulotlarida buyumlar va buyumlarsiz bajariladigan mashqlar, elka, qol va oyoq muskullarini tiklanish qobiliyati majmuini ishlab chiqish;

erkin kurashchilar bajaradigan maxsus mashqlari yakunida nafas olish texnikasi, meditasiya va vizualizatsiya usullarini rivojlantirishga hamda stress holatlarini kamaytirishga yo'natirilgan mashqlarni zarbdor o'quv mashg'ulotlar jarayoni rejasiga singdirish;

⁴ Tossavainen M., Nummela A., Paavolainen L. Mero A., Rusko H. Comparison of Two Maximal Anaerobic Cycling Tests //Int. J. Sports Med. Vol. 17.

erkin kurashchilarning jismoniy, texnik darajalarini aniqlash va mustahkamlashga qaratilgan tiklovchi mashqlar asosida musobaqalarga tayyorlashga yonaltirilgan o'quv mashg'ulotlar jarayonini mezosiklarga singdirish va integral imkoniyatlarini oshirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida sport maktablari o'quv mashg'ulot bosqichidagi erkin kurashchilarning o'quv-mashg'ulot jarayonlari olingan.

Tadqiqotning predmeti 14-15 yoshli erkin kurashchilarning individual imkoniyatlarini inobatga olgan holda ularning jismoniy, texnik-taktik tayyorgarliklariga yonaltirilgan vosita va usullarni tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili, antropometriya, pedagogik kuzatuv, pedagogik testlash, instrumental uslub, pedagogik tajriba va matematik-statistik kabi usublardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

14-15 yoshli erkin kurashchilarning jismoniy rivojlanishlarini sport tayyorgarliklariga mos ravishda kompleks tayyorlash asosida raqibning harakatlarini oldindan bilish va reaksiya ko'rsatish, himoya va hujum taktik harakatlarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan vosita va usullarni yuklama darajasi, mashq davomiyligi meyorini rejalashtirish hisobiga mashg'ulotlarni musobaqa bellashuvlariga moslashtirish imkoniyatlari kengaytirilgan;

yosh erkin kurashchilarning vositalar bilan bajariladigan mashqlarini texnik harakatlarga yo'naltirish evaziga tortuvchi mikrosilkni rejalashtirishda yelka, qo'l va oyoq mushaklarini tiklovchi vositalarning qo'llash hisobiga funksional tayyorgarlikni oshirish imkoniyatlari kengaytirilgan;

14-15 yoshli erkin kurashchilarni xaftaning boshida turli vaznli sportchilar bilan bajariladigan maxsus mashqlarni bajarish yakunida nafas olish texnikasi, meditatsiya hamda vizualizatsiya usullarini qo'llash orqali musobaqa jarayonida murakkab texnik-taktik harakatlarni to'xtovsiz bajarish samaradorligi oshirilgan;

14-15 yoshli erkin kurashchilarni jismoniy (balon va rezina arqon), texnik (maniken va juftlikda yengil bellashuv), tiklovchi (stereching, statik dinamik cho'zilish va aerobik) mashqlar asosida musobaqalarga kompleks tayyorshga yo'naltirilgan mezosikllarni samarali optimallashtirish hisobiga sportchilarni takomillashuv bosqichidagi belgilangan me'yorlarni bajarish imkoniyatlari kengaytirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat.

erkin kurashchilarning texnik-taktik harakatlarini takomillashtirish uchun o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

erkin kurashchilarning jismoniy rivojlanish darajasi va sport tajribasiga mos ravishda kompleks tayyorlash bilan olib boriladigan o'quv-mashg'ulotlar jarayonida qo'llaniladigan vosita va usullarni yuklama darajasi, mashq davomiyligi me'yorini rejalashtirish sxemalari ishlab chiqildi;

erkin kurashchilar tomonidan bajariladigan yelka, qo'l va oyoq mushaklarini tiklovchi vositalarni texnik usullarni variativ qo'llashga yonaltirilgan buymlar bilan va buymlarsiz bajariladigan mashqlar majmuasi ishlab chiqilgan va amaliyotga tadbiiq etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ilmiy nazariyalar, sport amaliyotida mavjud qoidalarining nazariy jihatdan horijiy mutahassislar va Respublika tadqiqotchilarning ilmiy nazariyalariga asoslanganligi, tadqiqotning ilmiy tashkil etilganligi, qo'llanilgan tadqiqot uslublari hamda oldinga qo'yilgan vazifalarga mos kelishi, katta daliliy materiallarning yuqori darajadagi ishonchliligi, to'g'ri ishlab chiqilganligi, tahlil qilinganligi va talqin etilganligi, olingan natijalarning to'g'riligi va ishonchliligi, aniq tadqiqot va pedagogik uslublarning qo'llanilganligi tajriba-sinov ishlari hamda olingan natijalarning matematik-statistik tahlil uslublari asosida isbotlanganligi va ishlab chiqilganligi, natijalarning vakolatli tuzulmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, o'quv-mashg'ulot jarayonini takomillashtirish va yuqori natijalar ko'rsatishga yordam beruvchi yangi yondashuvlarni ishlab chiqishga ilmiy hissa qo'shgan. 14-15 yoshli erkin kurashchilarning zarbdor mashg'ulotlarini tashkil etishda haftaning boshida turli vaznli sportchilar bilan ushlab, otish, oyoq ushlab, aylanish usullari va parter holatlaridan chiqish kabi maxsus mashqlarni o'z ichiga olgan reja asosida treninglar o'tkazish tavsiya etilgan. Hamda mashg'ulotlarning yakunida esa sportchilarning stress darajasini kamaytirish uchun nafas olish texnikasi, meditatsiya va vizualizatsiya usullari kiritilishi sportchilarning jismoniy va psixologik holatini yaxshilashga, shuningdek, yuqori samarali natijalarga erishishga yordam berishi ilmiy jihatdan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, musobaqa qoidalarining o'zgarishini e'tiborga olgan holda erkin kurashchilarning kompleks qobiliyatlarni rivojlantirish va texnik-taktik harakat samaradorligini oshirish texnologiyasi bo'yicha ishlab chiqilgan tamoyillardan kurash sport turining boshqa turlarida, ixtisoslashgan sport ta'lim muassasalari va erkin kurash bo'yicha O'zbekiston milliy terma jamoasi sportchilarining mashg'ulotlari jarayonida foydalanishga imkon yaratilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Malakali erkin kurashchilarning kompleks tayyorgarlik ko'rsatkichlarini rivojlantirish va texnik-taktik harakatlari samaradorligini oshirish bo'yicha o'tkazilgan tajribalar asosida:

14-15 yoshli erkin kurashchilarning jismoniy rivojlanishlarini sport tayyorgarliklariga mos ravishda kompleks tayyorlash asosida raqibning harakatlarini oldindan bilish va reaksiya ko'rsatish, himoya va hujum taktik harakatlarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan vosita va usullarni yuklama darajasi, mashq davomiyligi meyorini rejalashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar Sirdariyo viloyati yakka kurash sport turlariga ixtisoslashgan sport maktabi erkin kurash mashg'ulotlariga tadbiq qilingan (O'zbekiston Respublikasi Sportni rivojlantirish vazirligining 2022-yil 8-noyabrdagi 06-01/06/13/7622-son ma'lumotnomasi). Natijada, erkin kurashchilarining 30 m masofaga yugurish ko'rsatkichi 14,2 % ga yaxshilangan;

yosh erkin kurashchilar vositalar bilan bajariladigan mashqlarni texnik harakatlarga yo'naltirish evaziga tortuvchi mikrosilkni rejalashtirishda yelka, qo'l va oyoq mushaklarini tiklovchi vositalaridan foydalanish bo'yicha taklif va tavsiyalar Chirchiq olimpiya va paralimpiya sportchilarini tayyorlash markazining erkin kurash mashg'ulotlariga tadbiq qilingan (O'zbekiston Respublikasi Sportni rivojlantirish

vazirligining 2022-yil 8-noyabrdagi 06-01/06/13/7622-son ma'lumotnomasi). Natijada, kurashchilarining beldan oshirib tashlash bo'yicha texnik tayyorgarligi 18,3 % ga yaxshilangan;

14-15 yoshli erkin kurashchilarning zarbdor mashg'ulotlarni tashkil etish uchun haftaning boshida turli vaznli sportchilar bilan ushlab, otish, oyoq ushlab, aylanish usullari, parter holatlaridan chiqish maxsus mashqlarni, yakunida esa nafas olish texnikasi, meditatsiya va vizualizatsiya usullari orqali sportchilarning stress darajasini kamaytirishga qaratilgan mashqlarini mashg'ulotlar rejasiga singdirish bo'yicha taklif va tavsiyalar "Sport pedagogik mahoratini oshirish (Erkin kurash)" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 9-sentyabrdagi 302-sonli buyurug'iga asosan 302-0250 raqamli guvohnoma). Natijada, erkin kurashchilarning taktik tayyorgarligi 16,4% ga yaxshilangan;

14-15 yoshli erkin kurashchilarni musobaqalarga tayyorlashda jismoniy (balon va rezina arqon), texnik (maniken va juftlikda yengil bellashuv), tiklovchi (stereching, satatik-dinamik cho'zilish va aerobik) mashqlarni mezosikllarga singdirish bo'yicha takliflar va tavsiyalar Guliston olimpiya va paraolimpiya sport turlariga tayyorlash markazi erkin kurash mashg'ulotlariga tadbiq qilingan (O'zbekiston Respublikasi Sportni rivojlantirish vazirligining 2022-yil 8-noyabrdagi 06-01/06/13/7622-son ma'lumotnomasi). Natijada, markaz o'quvchilari tomonidan xalqaro musobaqalarda 1 ta oltin, 4 ta kumush va 3 ta bronza medallari hamda respublika musobaqalarida esa 2 ta oltin, 1ta kumush va 4 ta bronza medallari qo'lga kiritilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Tadqiqot materiyallari 2 ta xalqaro, 2 ta respublika miqyosida ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 19 ta ilmiy-uslubiy ish, jumladan, bitta darslik O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, respublika jurnallarida 4 ta, xorijiy jurnallarda 2 ta maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, to'rta bob, ulosa, 19 ta rasmlar, 10 jadvallar, xulosa, amaliy tavsiyalar, adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, 128 betli matnni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zaruratiga asoslangan bo'lib unda tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, mavzuning o'rganilganlik darajasi, tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi, tadqiqot mavzusini maqsad-vazifalari, obykti, predmeti, tadqiqot usullari ko'rsatilgan, tadqiqot ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ishonchliligiga asoslanib, ishning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi ko'rsatilgan, nashr etilgan ishlar, dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Sport kurashi turlarida kompleks tayyorgarlikning o‘ziga xos xususiyatlari va o‘rni”** deb nomlangan birinchi bobida 14-15 yoshli erkin kurashchilarning yoshga xos rivojlanishi, jismoniy yuklamalarga sportchilarning adaptatsiya jarayonlarini yoshga bog‘liqligi va ta’siri, yosh yakkakurashchilarning mashg‘ulot yuklamalarini me‘yorlashtirish, mikrosikllarda va yillik sikl tuzishni hamda mashg‘ulot jarayonini boshqarishning asosiy tamoyillariga asoslangan holda rejalashtirish, yuzasidan ma’lumotlar keltirilgan.

Tayyorgarlik bosqichining rivojlantiruvchi bazaviy mikrosiklida tortuvchi mikrosiklga nisbatan yuklamalar sezilarli darajada yuqori bo‘lgan hajmi jihatidan ham va jadalligi bo‘yicha ham, ular o‘nta mashg‘ulot kunlari davomida bajarilgan. Masalan, tezkorlikni, epchillikni va egiluvchanlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan mashg‘ulot vositalarining hajmlari: 1,5-2 martaga – 60 daqiqadan 90 daqiqaga qadar oshirilgan, yohud haftasiga 120 daqiqaga qadar oshirilgan; chidamlilikni rivojlantirishga mikrosiklning 4 va 6-kunlari yana 120 daqiqadan oshirilgan. Bazaviy tipdagi mikrosikllarda tayyorgarlik dasturi ikkita olishuvlarni o‘tkazilishini nazarda tutgan.

Bazaviy tipdagi mikrosikllarda bir xil yo‘naltirilgan mashg‘ulotlarga ancha katta e’tibor qaratilgan bo‘lib, bu adaptasion jarayonlarni ancha chuqur rag‘batlantirish imkonini bergan. Sportchilarning psixomotor ko‘rsatkichlarining pasayishi bilan birga o‘tadigan eng sezilarli toliqish, tortuvchi mikrosikl bosqichidagi kabi, shu yoshdagi erkin kurashchilarda haftaning 4 va 6-kunlari kuzatilgan. Sportchilarning zarbdor tipdagi mikrosikllaridagi tayyorgarlik dasturi sakkizta katta yuklamali va to‘rtta o‘rtacha yuklamali mashg‘ulotlarni nazarda tutgan. Keyingi bosqich tarkibiga haftasiga uchta olishuvlarni hamda chidamlilikni ustivor rivojlantirish bilan ikkita mashg‘ulotni kiritgan mazkur mikrosiklni sportchilar yillik siklning tayyorgarlik bosqichini yakunidagina qo‘llashgan. Xuddi oldingidek, toliqish belgilari va psixomotor ko‘rsatkichlarning yomonlashishi zarbdor mikrosiklning oxiriga kelib kuzatilgan (D.Boychenko, I.YGorskaya, L.A. Siyangulova, V.F.Esmeykin).

Mavzuga aloqador adabiyotlarni o‘rganish natijasida to‘plangan ulkan tajribaga asoslanib shularni xulosa qilish mumkinki, yakkakurashchilarning har taraflama yuqori ko‘rsatkichlarda rivojlanishiga erishish uchun, avvalo, erkin kurashchilarning yoshi, jinsi va jismoniy imkoniyatlarini inobatga olgan holda mashg‘ulotlarni rejalashtirish jarayoni juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot uslublari va uni tashkil etish”** deb nomlangan ikkinchi bobida qo‘yilgan muammolarni xal qilishda quyidagi usullardan foydalanildi: tadqiqot mavzusi bo‘yicha ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish, pedagogik kuzatuv, antropometriya, pedagogik testlash, pedagogik tajriba, matematik-statistik usullaridan foydalanildi. Dissertatsiya tadqiqotlari to‘rtta asosiy bosqichda olib borilgan bo‘lib sport tayyorgarlik bosqichining o‘quv mashg‘ulot bosqichidagi erkin kurashchilarning o‘quv-mashg‘ulot jarayonida tashkil qilingan:

Birinchi bosqich – tanlangan mavzu bo‘yicha ilmiy-uslubiy adabiyotlar o‘rganib chiqildi, tadqiqotning to‘g‘ri uslubiy usullari tanlovi amalga oshirildi.

Ikkinchi bosqich – o‘quv mashg‘ulot bosqichida erkin kurashchilarni kompleks tayyorgarlik darajasi va tuzilmaviy xususiyatlari o‘rganib chiqildi.


Uchinchi bosqich – jismoniy tayyorgarligini tabaqalashtirilgan uslubiyatining asosiy holati asoslandi va ishlab chiqildi hamda o‘quv mashg‘ulot bosqichida erkin kurashchilar mashg‘ulot jarayonlarida ularni qo‘llanilish samaradorligi o‘rganib chiqildi.

To‘rtinchi bosqich – olingan tajriba ma’lumotlarni matematik statistika usullari orqali qayta ishlab chiqish o‘tkazildi, uning tahlili va dissertatsiya ishini shakllantirish amalga oshirildi. Tadqiqotlarda Guliston shahar 1-sonli sport maktabi, Guliston OPSTTM erkin kurashchilari ishtirok etdi. Barcha sinaluvchilarning tadqiqot boshida salomatlik darajalari tahlil qilindi va ijobiy ekanligi qayd etildi.

Dissertatsiyaning **“14-15 yoshli erkin kurashchilarning umumiy jismoniy tayyorgarlik darajasini aniqlash bo‘yicha tadqiqotlar”** deb nomlangan uchinchi bobida 14-15 yoshli o‘quv mashg‘ulot guruhi bosqichida shug‘ullanuvchi erkin kurashchilarning jismoniy va psixofunksional rivojlanish dinamikasi hamda ushbu yoshdagi erkin kurashchilarning jismoniy yuklamalarini yuqori samaradorlikda ularning yoshiga xos tartibda optimallashtirish yuzasidan ma’lumotlar keltirilgan.

O‘quv-mashg‘ulot guruhida shug‘ullanuvchi 14-15 yoshli erkin kurashchilarning tana uzunlik o‘lchamlari olinib ularning o‘rtacha ko‘rsatkichlari hisoblanganida quyidagicha natijalar qo‘lga kiritildi. 14 yoshlilarda 152.7±15 yoshlilarda esa 153.5±0,8 sm bilan ko‘rsatkichlar orasidagi farq sezilarli darajada katta emasligi aniqlandi. Yuqoridagi diagrammada tana uzunligi bilan birgalikda ko‘krak qafasining o‘rtacha uzunlik ko‘rsatkichlari ham keltirilgan (1-rasmga qarang).

Olingan natijalar esa quyidagicha: 14 yoshli erkin kurashchilarning ko‘krak qafasining o‘rtacha kenglik ko‘rsatkichi 68 sm tashkil qilgan bo‘lsa, 15 yoshli erkin kurashchilarning ko‘krak qafasi kengligi 69.6 sm qayd etdi. Har ikki yoshdagi sportchilarimizning ko‘krak qafasi kengligidagi farq 1,6 sm.ni tashkil qilgan.



1-rasm. 14-15 yoshli erkin kurashchilarning jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlari


14-15 yoshli erkin kurashchilarning tana og‘irlik ko‘rsatkichlari ham olindi. Natijalarni tahlil qiladigan bo‘lsak, quyidagi holatlar kuzatildi, 14 yoshli shug‘ullanuvchi erkin kurashchilarning tana og‘irlik massasi 44.4 kg natijani qayd etgan bo‘lsa, 15 yoshli sportchilarimizning tana og‘irlik massasi birmuncha yuqoriroq. Ya’ni 46.4 kg (farq 1.8 kg) ko‘rsatkichni qayd etishdi.

Egiluvchanlikni aniqlash bo‘yicha olingan natijalar esa quyidagicha: o‘quv-mashg‘ulot guruhida shug‘ullanuvchi 14 yoshli erkin kurashchilarimizda

egiluvchanlik o'rtacha ko'rsatkichi 11,6 sm ni tashkil qilgan bo'lsa, 15 yoshli erkin kurashchilarning egiluvchanligi 12,5 smni tashkil qildi (tafovut 0,9 sm) ni tashkil qiladi (2- rasmga qarang).

Yuqoridagi diagrammada 14-15 yoshli erkin kurashchilarning barmoq kuchlarini aniqlovchi test natijalarini ham ko'rishimiz mumkin. Ushbu nazorat testlari quyidagi natijalarni ko'rsatdi. Unga ko'ra, 14 yoshli erkin kurashchilarning panja kuchlari o'rtacha 31 kg natijani ko'rsatishgan bo'lsa, 15 yoshli sportchilarimizning natijalari biroz yuqoriroq ekanligi, ya'ni 33,4 ko'rsatkichni qayd etishdi (tafovut 2.4 kgni tashkil qildi).

Tezkorlikni, chaqqonlikni hamda chidamlilikni aniqlash bo'yicha ham turli xil masofalarga vaqt hisobida yugurish uchun masofalar tanlab olindi. Natijalar quyidagicha bo'ldi: 14 yoshli o'quv-mashg'ulot guruhida shug'ullanuvchi erkin kurashchilarning 30 m masofaga yugurish mashqining o'rtacha ko'rsatkichi 4,9 soniya bo'lgan bo'lsa 15 yoshli erkin kurashchilarning ushbu masofaga yugurish ko'rsatkichi o'rtacha 5 s ni tashkil qildi.



3-rasm. 14-15 yoshli erkin kurashchilarning 30 metr, 3 x 10, egiluvchanlik, qo'l panja kuchi hamda 1000 metr yugurish natijalari

14-15 yoshli sportchilarda chaqqonlik sifatini aniqlash uchun 3 x 10 m. usulida yugurish mashqi olindi. Ushbu mashqlar yuzasidan qo'lga kiritilgan natijalar quyidagicha bo'ldi: 14 yoshli erkin kurashchilarimiz 13,0 s natijani qayd etishgan bo'lsa, 15 yoshli o'quv-mashg'ulot guruhidagi erkin kurashchilarimiz 13,1 s natijani qayd etishdi. (3-rasmga qarang).

O'quv mashg'ulot guruhida shug'ullanuvchi 14-15 yoshli erkin kurashchilarni qorin mushaklarining rivojlanganlik darajasini aniqlash uchun maxsus mashq tanlab olindi va sportchilar tanlangan mashq yuzasidan quyidagicha natijalar qayt etildi. 14 yoshli o'quv-mashg'ulot guruhida shug'ullanuvchi sportchilarimizning o'rtacha ko'rsatkichi 19,6 martani tashkil qilgan bo'lsa, 15 yoshlilardan tashkil topgan erkin kurashchilarning o'rtacha ko'rsatkichi 20,5 martani tashkil qildi. Har ikki guruhdan olingan natijalarni solishtiradigan bo'lsak, qorin mushaklarining rivojlanganlik darajasidagi farqlar katta emasligi kuzatiladi.

14-15 yoshli erkin kurashchilarning boldir va oyoq panja mushaklarini rivojlanganlik darajasini aniqlash uchun turgan joydan balandlikka sakrash mashqi tanlab olindi.

14 yoshli erkin kurashchilarimizdan ushbu nazorat talablaridan olingan natijalarning o'rtacha ko'rsatkichi 31 sm.ni tashkil qilgan bo'lsa, 15 yoshli erkin kurashchilarning o'rtacha ko'rsatkichi 33,4 sm.ni qayt etdi.

Musobaqa natijalari va jismoniy rivojlanishning o'sish ko'rsatkichlari to'g'risidagi obyektiv ma'lumotlarni tahlil qilish va ushbu asosida tayyorgarlikning turli tomonlarini optimallashtirish muommosi o'ta dolzarb hisoblanadi. Shu bois, o'quv-mashg'ulot guruhida shug'ullanuvchi 14-15 yoshli erkin kurashchilarning jismoniy sifatlarini rivojlanish samaradorligini oshirishda mashg'ulot yuklamalarini taqsimlash va rejalashtirish, musobaqa va maxsus mashqlarni bajarish harakatini boshqarish va uni funksional tahlil qilish bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan. Biroq o'quv-mashg'ulot guruhidagi erkin kurashchilarda maxsus bir tizim orqali, jismoniy sifatlarining uzliksizlikda barqaror rivojlanish samaradorligini oshirishda mashg'ulot yuklamalarini taqsimlash va rejalashtirish, samaradorligini yaxshilash yuzasidan ilmiy ishlar olib borish tadqiqotchilar nazaridan chetda qolmoqda.

Yuqorida keltirilgan tahliliy ma'lumotlar ilmiy tadqiqot ishlarining yetarli darajada emasligini ko'rsatadi. Bu esa 14-15 yoshli erkin kurashchilarining jismoniy va texnik-taktik qobiliyatlarini rivojlantirish hamda texnik-taktik harakatlari samaradorligini oshirishda mikrosikllarda mashg'ulot jarayonlarini to'g'ri tashkillashtirish muammosi o'ta dolzarb ekanligini tasdiqlaydi. Adabiyotlar manbalari tahlilidan xulosa qilib aytish mumkinki, bu sohadagi katta ilmiy-uslubiy tajriba to'planganligini e'tiborga olib, erkin kurashchilarning jismoniy, texnik-taktik qobiliyatlarini rivojlantirish va texnik-taktik harakatlari samaradorligini oshirish vazifalarini mashg'ulot rejalarini mikrosikllarda to'g'ri tashkillashtirib amalyotga tadbiq qilish yo'li katta samara berishi aniqlandi.


Bugungi kunda 14-15 yoshli erkin kurashchilarning mashg'ulot jarayoni faoliyatini o'rganish asosida jismoniy texnik-taktik qobiliyatlarini rivojlantirish va texnik-taktik harakatlari samaradorligini oshirish bo'yicha tadqiqotlar yo'qligi aniqlandi. Bunday yondashuv musobaqa va o'quv-mashg'ulot jarayonlarini oqilona boshqarishga yordam beradi. Chunki, jismoniy va texnik-taktik tayyorgarlik bir-biriga ta'sir qilish kattaligini bog'lab turuvchi ko'rsatkichlarni baholab turish sportchilar mahorati va sport natijalarining yaxshilanishida yoqiri samara beradi.

O'z navbatida taniqli mutaxassis V.N.Platonov beshta turdagi mikrosikllarni ajratishni taklif qildi; tortuvchi, zarbdor, yaqinlashtiruvchi, musobaqa va tiklanish. Biroq bu turdagi mikrosikllar mazmunining tahlilidan shu narsa ko'zga tashlanadiki, ular L.P.Matveyev taklif etgan turlardan muhim darajada farq qilmaydi. Shuni esda tutish lozimki, mikrosikldagi yuklamalar va dam olishning turli almashinuvi uchta turdagi reaksiyalarga olib kelishi mumkin: a) mashqlanishning maksimal darajada o'sishi; b) mashg'ulot samarasining kamligi yoki butunlay bo'lmasligi; c) sportchining toliqib qolishi. Yuqorida e'tirof etilgan besh turdagi mikrosikllarning sportchi organizimiga yuklama berish hususiyati quyidagicha ko'rinishlarga ega (4-rasmga qarang).

Mikrosikl turi				
Tortuvchi	Zarbdor	Yaqinlashtiruvchi	Musobaqa	Qayta tiklovchi
Maqsad				
Mashg'ulot yuklamasiga dastlabki moslashish	Jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish	Cheklangan o'quv yuklamalarini qo'llash orqali jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish	Musobaqaga bevosita tayyorgarlik	Faol qayta tiklash
Yuklama darajasi				
O'rtacha	Katta	Katta maksimal	Katta	Qisqa
Xususiyatlari				
Yuklamaning asta-sekin o'sishi	Katta va muhim yuklamalardan foydalanish	Cheklangan yuklama qo'llash va o'rnatish	Bo'lajak musobaqaga tayyorgarlik ko'rish; sport uchun maxsus vositalardan	Qayta tiklash vositalarining keng doirasini qo'llash
Davomiyligi				
6-7 kun	6-7 kun	6-7 kun	6-7 kun	3-4 kun

4-rasm. Har xil mikrosikllarda yuklama darajasi va xususiyatlari

Tortuvchi mikrosikldan sportchilarning mashg‘ulot yuklamasiga dastlabki moslashishlariga ko‘maklashadi. Bunda yuklama darajasi o‘rtacha va yuklamaning asta-sekin o‘sib borishi kuzatiladi. Davomiyligi esa 6-7 kunni tashkil etadi.



5-rasm. 14-15 yoshli erkin kurashchilarning mikrosikllarda tuzilgan mashg‘ulot rejasi (birinchi hafta)

Navbatdagi mikrosikl bu zarbdor hisoblanib, ushbu mikrosikldan foydalanishdan maqsad sportchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirishdir. Yuklama darajasi muhim-katta xususiyatli yuklamalardan foydalanish hisoblanib 6-7 kun davomi etadi.

(Dushanba): URM (15-20 daq) → Kuch sifatini rivojlantiruvchi mashqlar (15-20 daq) → Maxsus texnik usullarni bajarish mashqlari (15-20 daq) → Kurash manikenida ishlash (5-10 daq) → Tiklovchi choʻziluvchi mashqlar yelka qoʻl, bel va oyoq mushaklariga (15-20 daq).

(Seshanba): URM (20-25 daq) → kuch sifatini rivojlantirish uchun mashqlar: 7 metrli arqonga chiqib, tushish 3-4 marotaba Turnikda tortilish mashqini bajarish uchun 10-15 soniyadan, 5-7 marotaba (25-30 daq) → yelkadan oshirib tashlash usilini bajarish (2 daq 3-4 marotaba), yelkalardan oshirib tashlash usilini bajarish (2 daq 3-4 marotaba) (25-30 daq).

(Chorshanba): Umumiy jismoniy tayyorgarlikka qaratilgan mashqlar: Yugurish, badan qizdiruvchi, choʻziluvchi mashqlar (20-25 daq) → Kuch sifatini rivojlantiruvchi mashqlar, pres; bel mushaklari uchun mashqlar (20-25 daq) → Qoʻllar bilan tayangan holatda oldinga yurib harakatlanish 30-40 soniya 3-4 takrorlanish bilan (10-15 daq) → Oyoqlar sherigi yordamida poldan 1 metr masofada yuqoriga koʻtarib ushlab yuriladi) 30-50 soniya va undan ortiq 3-4 seriyadan iborat, 3-4 marta takrorlanadi. (10-15 daq).

(Payshanba): URM (15-20 daq) → Kuchni rivojlantiruvchi mashqlar ogʻirliklar bilan (20-25 daq) → Tezlik. 4 x 60 m (10-15 daq) → Maxsus mashqlar (1 km) (5-10 daq) → Oyoq mushaklari uchun mashqlari - 20 daqiqa.

(Juma): Sekin yugurish (800-1000 m (10-15 daq) → URM (15-20 daq) → Maxsus mashqlar Oʻng va chap oyoqlarda navbatma-navbat joyida sakrash mashqlari 90-120 son / 1-2 daq va undan ortiq 3-4 takrorlanish bilan (20-25 daq) → Chaqqonlik sifatini rivojlantirish uchun mashq 5 x 30 m. 2-3 takrorlanishda takrorlanishlar orasida 50-60 soniyadan dam olish bilan yugurish (25-30 daq).

(Shanba): URM (5-10 daq) → Yengil kardio va choʻzilish mashqlari (25-30 daq) → Massaj: oʻzi va sherik yoradimda masaj qilish (20-30 daq) → Yengil texnik va taktika mashqlari (15-20 daqiqa).

6-rasm. 14-15 yoshli erkin kurashchilarning mikrosikllarda tuzilgan mashgʻulot rejasi (ikkinchi hafta)

14-15 yoshli erkin kurashchilarning yaqinlashtiruvchi mikrosiklida tuzilgan mashgʻulot davri rejasi quyidagicha koʻrinishga ega: 14-15 yoshli sportchilar uchun erkin kurash boʻyicha musobaqa mikrosiklida oʻquv mashgʻulotlarini tashkil etish musobaqalarga tayyorgarlik koʻrish, tiklanishni maksimal darajada oshirish va eng yuqori shaklni saqlashga qaratilgan mashgʻulot davri boʻlib hisoblanadi. Demak, ushbu mashgʻulot davri uchun haftalik mashgʻulotlar rejasi quyidagicha koʻrinishga ega.

(Dushanba): Umumiy jismoniy tayyorgarlikga qaratilgan mashg'ulot: Badanni qizdiruvchi mashqlar: yengil yugurish, URM (10-15 daq) → Kuch mashqlari: tana vazni mashqlari (juftlikda: tortish, surish) (20-25 daq) → Texnik mashg'ulot kurashchilar uchun maxsus mashqlar (15-20 daq) → Yengil olishuv: texnikani mustahkamlash uchun juftlikda mashqlar bajariladi (25-30 daq).

(Seshanba): Funktsional mashg'ulot: Badanni qizdiruvchi mashqlar: dinamik cho'zish (15-20 daq) → Chaqqonlik va muvofiqlashtirish mashqlar: Narvonda ishlash, konuslar (15-20 daq) → Taktika: bo'lajak musobaqalar uchun taktik chizmalar va strategiyalarni tahlil qilish va ishlab chiqish (25-30 daq) → Trening janglari: Raqobat vaziyatlarini simulyatsiya qilish orqali takomillashtirish (15-20 daq).

(Chorshanba): Faol dam olish (masalan, suzish, cho'zish mashqlari) Cho'zilish mashqlari: Statik va dinamik cho'zish; yengil aerobik mashqlar: Yoga mashqlari (To'liq mashg'ulot vaqti sarf etiladi).

(Payshanba): Maxsus jismoniy tayyorgarlik: Badanni qizdiruvchi mashqlar: yengil yugurish, URM (10-15 daq) → Maxsus mashqlar: Kurashga xos sifatlarni saqlashga qaratilgan (15-20 daq) → Texnik mashg'ulot: asosiy texnika va kombinatsiyalarni takrorlash (20-25 daq) → Yengil olishuvlar: texnikani birlashtirish uchun juftlikda bajariladigan mashqlar (25-30 daq)

(Juma): Tiklanishga qaratilgan mashg'ulot: Badanni qizdiruvchi mashqlar: yengil aerob mashqlari (8-10 daq) → Cho'zilish mashqlari: Statik va dinamik cho'zish (15-20 daq) → Massaj: o'z-o'zini massaj qilish yoki sherik bilan massaj qilish (10-15 daq) → Taktik sxemalarni oson tahlil qilish va takrorlash (15-20 daq) → Yengil mashg'ulot qisqarishlari: minimal yuk, vaziyatlarni simulyatsiya qilish (15-20 daq)

(Shanba): Juda yengil faoliyat: Yengil cho'zilish mashqlari (30-40 daq) → Aqliy tayyorgarlik: Bo'lajak bellashuvlarning vizualizatsiyasi, qilish orqali sportchilarda raqobatbardosh kayfiyatni shakillantirish 40-50 daq.

7-rasm. 14-15 yoshli erkin kurashchilarning mikrosikllarda tuzilgan mashg'ulot rejasi (to'rtinchi hafta)

Dushanba: Umumiy jismoniy tayyorgarlikga qaratilgan mashg'ulot: Badanni qizdiruvchi mashqlar: (yengil yugurish, URM (10-15 daq)), kuch mashqlari: tana vazni mashqlari (juftlikda: tortish, surish) (20-25 daq), texnik mashg'ulot erkin kurashchilar uchun maxsus mashqlar (15-20 daq). Yengil olishuv: texnikani mustahkamlash uchun juftlikda mashqlar bajariladi (20-25 daq). Yuqorida ko'rsatilgan yo'nalishlardagi mashqlar orqali 14-15 yoshli erkin kurashchilarning

texnik, taktik va umumiy jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarining maksimal darajalarini saqlashga harakat qilinadi (8-rasmga qarang).

Haftaning ikkinchi (Seshanba) kunida: erkin kurashchilarning funksional tayyorgarligiga qaratilgan mashg'ulot tashkil qilindi. Bunda erkin kurashchilarga quyidagi yo'nalishlardagi yuklamalar berildi: badanni qizdiruvchi mashqlar: dinamik cho'zish (15-20 daq), Chaqqonlik va muvofiqlashtirish mashqlar: Narvonda ishlash, konuslar (10-15 daq), erkin kurashchilarning taktik maxoratini takomillashirish uchun esa bo'lajak musobaqalar uchun taktik sxemalar va strategiyalarni tahlil qilish va ishlab chiqish (20-25 daq) hamda, trening olishuv: Raqobat vaziyatlarini simulyatsiya qilish orqali rivojlantirilgan (15-20 daq) qaratilgan mashqlar orqali takomillashtirildi.

Erkin kurashchilarning mikrosikllarda tuzilgan "Musobaqa" mashg'ulot davri rejasining navbatdagi (Chorshanba) kunida: Faol dam olish (masalan, suzish, cho'zish mashqlari) Cho'zilish mashqlari: Statik va dinamik cho'zish; yengil aerobik mashqlar: Yoga kabi yuqori bo'lmagan yuklamalarni bajarish orqali mashg'ulotlar tashkil qilindi.

1-jadval

14-15 yoshli erkin kurashchilarni musobaqlarga tayyorlash mezosikli

Sikllar	Dushanba	Seshanba	Chorashanba	Payshanba	Juma	Shanba
Tortuvchi	Jismoniy, texnik va tiklovchi vositalar	URM, egiluvchanlik, sport o'yinlari	Sport o'yinlari, tiklovchi vositalar, hammom	Chigal yozdi mashqlar, maniken, rezina, balon va arqon	Erkin kurash usullari, tezlikda takrorlash	Maxsus kuch va chaqqonlik mashqlari
Zarbdor	Kuch, texnik va tiklovchi vositalar	Arqonga chiqish, turnikda tortilish, texnik usullar	UJT, sherik bilan mashqlar	UJT, MJT	Sekin yugurish, sakrash	URM, texnik-taktik, cho'zilish mashqlari
Yaqinlash tiruvchi	UJT, kardio mashqlar, juftlikda texnik mashqlar	Funksional mashg'ulot	Dam olish, suzish, stretching mashqlari	MJT, Texnik kombinatsiyalar	Tiklanish statik va dinamik cho'zilish	Dam olish va tiklanish
Musobaqa oldi	UJT, juftlikda texnik, yengil bellashuv	Funksional va taktik, bellashuv	Faol dam olish, statik va dinamik cho'zilish va aerobik mashqlar, yoga, pilatez	MJT, texnik, yengil bellashuv	Tiklanish, massaj, taktik sxema	Juda yengil faoliyat va nazariya tayyorgarlik

14-15 yoshli erkin kurashchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligining rivojlanganlik darajalarini saqlab turishga qaratilgan mashg'ulotlar rejasiga quyidagicha mashg'ulot yuklamalarini sportchi organizmiga berish xususiyatiga ega mashqlar guruhi kiritildi. Bular: badanni qizdiruvchi mashqlar: yengil yugurish, URM (10-15 daq), Maxsus mashqlar: kurashga xos sifatlarni saqlashga qaratilgan (15-20 daq), Texnik mashg'ulot: asosiy texnika va kombinatsiyalarni takrorlash

(15-20 daq), Yengil olishuv: texnikani birlashtirish uchun juftlikda bajariladigan mashqlar 20-25 daqiqagacha bo'lgan vaqt davomida bajarildi.

Mikrosiklda tuzilgan "musobaqa" mashg'ulot davrining beshinchi juma kunida erkin kurashchilarning qayta tiklanishga qaratilgan mashg'ulot tashkil qilingan: bo'lib, bunda sportchilar Badanni qizdiruvchi mashqlar: yengil aerob mashqlari (8-10 daq), Cho'zilish mashqlari: Statik va dinamik cho'zish (15-20 daq), Massaj: o'z-o'zini massaj qilish yoki sherik bilan massaj qilish (10-15 daq), Taktik sxemalarni oson tahlil qilish va takrorlash (15-20 daq), hamda mashg'ulot so'ngiga kelib yengil mashg'ulot: minimal jismoniy yuklama, vaziyatlarni simulyatsiya qilish (20-25 daq) kabi guruhlardagi mashg'ulot yuklamalarini bajardilar.

Yengil cho'zilish mashqlari erkin kurashchilar tomonidan (20-30 daq). Aqliy tayyorgarlik: Bo'lajak bellashuvlarni vizualizatsiya, qilish orqali sportchilarda raqobatbardosh kayfiyatni shakillantirish mashqlarini 14-15 yoshli erkin kurashchilar 30-40 daqiqagacha bo'lgan vaqt davomida haftaning shanba kunida bajardilar.

Amaliyotning katta va juda katta yuklamali (ular ham o'zaro, ham kichik yuklamali mashg'ulotlar bilan oqilona almashib turiladi). Mashg'ulotlarning optimal soni mikrosiklga kirgan hollar birinchi turdagi reaksiyaga xosdir. Katta yuklamalarni haddan ortiq qo'llash toliqishga olib keladi. Albatta yuqoridagi mashg'ulot yuklamalarini amaliyotga joriy qilishda sportchilarning yuklamalarni ko'tara olish imkoniytlariga qarab takrorlashlar meyori, shiddati, hajmi kabilarni to'g'ri inobatga olgan holda belgilash juda muhimdir.

Dissertatsiyaning "**Erkin kurashchilarning kompleks tayyorgarligida ishlab chiqilgan metodikaning samaradorligini tajribada asoslash**" deb nomlangan to'rtinchi bobida 14-15 yoshli o'quv mashg'ulot guruhi bosqichida shug'ullanuvchi erkin kurashchilarning jismoniy va psixofunksional rivojlanish dinamikasi hamda ushbu yoshdagi erkin kurashchilarning jismoniy yuklamalarini yuqori samaradorlikda ularning yoshiga xos tartibda optimallashtirish yuzasidan ma'lumotlar keltirilgan.

14 yoshli erkin kurashchilarning jismoniy tayyorgarlik dinamikasini aniqlash yuzasidan saralab olingan mashqlarning dastlabkisi qo'l panja kuchini aniqlashga qaratilgan mashq bo'lib, ushbu mashq bo'yicha qo'lga kiritilgan natijalar quyidagicha bo'ldi. Nazorat guruhida shug'ullanuvchi erkin kurashchilarning tadqiqotdan avvalgi natijalari $30,5 \pm 5,2$ ni tashkil qilgan bo'lsa, tajriba guruhining tadqiqot avvalidagi natijasi $29,0 \pm 6,2$ ga teng bo'ldi (2-jadvalga qarang).

2-jadval

14 yoshli erkin kurashchilarining jismoniy tayyorgarlik dinamikasi ko'rsatkichlari (n=24)

T/r	Ko'rsatkichlar	Gr	NG	TG	t	P
1.	Qo'l kaft kuchi (kg)	TB	$30,5 \pm 5,2$	$29,0 \pm 6,2$	1,35	>0,05
		TO	$32,8 \pm 2,7$	$33,0 \pm 2,9$	2,86	<0,05
2.	30 m. yugurish (soniya)	TB	$5,4 \pm 0,3$	$5,3 \pm 0,8$	0,43	>0,05
		TO	$5,1 \pm 0,8$	$5,0 \pm 0,3$	2,20	<0,05
3.	Turgan joyida uzunlikka sakrash (sm)	TB	$1,58 \pm 0,19$	$1,60 \pm 0,07$	0,63	>0,05
		TO	$1,61 \pm 1,11$	$1,66 \pm 0,18$	1,87	<0,05

2-jadval davomi						
4.	Yerga tayangan holda qo'llarni bukib yozish	TB	17,1 ± 2,7	16,3 ± 3,5	1,12	>0,05
		TO	19,5 ± 3,6	20,8 ± 5,1	2,03	<0,05
5.	Chalqancha yotgan holda gavdani ko'tarib tushirish (martta)	TB	17,5 ± 2,1	17,9 ± 2,5	1,88	>0,05
		TO	19,5 ± 3,2	21,6 ± 4,3	3,06	<0,01
6.	Gimnastika o'rindig'ida egiluvchanlik mashqi (sm)	TB	10,1 ± 1,2	10,2 ± 5,6	1,88	>0,05
		TO	11,6 ± 3,2	12,2 ± 3,6	3,06	<0,01
7.	3 x 10 m. moksimon yugurish (soniya)	TB	13,5 ± 0,3	13,8 ± 0,3	1,92	>0,05
		TO	13,0 ± 1,1	12,6 ± 2,7	2,33	<0,05
